

# O'QUVCHI- YOSHLARDA MILLIY G'URUR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHDA KITOBLARNING O'RNI

*Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich*

*Andijon davlat universiteti*

*Umumiy pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti, (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy g'urur tushunchasi, milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish hamda bugungi kun o'quvchi - yoshlarida milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda kitoblarning o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** milliy g'urur, shaxs, ma'naviyat, afsona, rivoyat, ma'naviy qadriyatlar, qadriyatlar, ma'naviy meros, xalq og'zaki ijodi.

**Аннотация:** В этой статье рассматривается концепция национальной гордости, роль и значение книг в формировании и развитии чувства национальной гордости, а также в развитии чувства национальной гордости у сегодняшних читателей.

**Ключевые слова:** национальная гордость, личность, духовность, миф, повествование, духовные ценности, ценности, духовное наследие, устное народное творчество.

**Abstract:** This article examines the concept of national pride, the role and importance of books in the formation and development of a sense of national pride, as well as in the development of a sense of national pride among today's readers.

**Keywords:** national pride, personality, spirituality, myth, narrative, spiritual values, values, spiritual heritage, oral folk art.

Qadimdan ma'lumki insonlar atrof muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabatlar kitoblarda o'z ifodasini topgan.

Insonning his-tuygʻulari soʻzlar, matnlar, rasmlar orqali yozma manbalarda muxrlangan. Shu asosda ajdodlarimiz dunyo, tabiat, jamiyat, hayvonot olami, oʻsimliklar, togʻlar, suvlarning paydo boʻlishi haqidagi maʼlumotlarni oʻzida mujassamlashtirgan hikoyalar yaratganlar. Yoshlar esa oʻz xis-tuygʻularini turli sheʼrlar va qissalarda bayon qilganlar. Ushbu hikoyalar va qissalarda xalqimizning ruxiyati, milliy mentaliteti, urf-odatlarini, tarbiyaviy qarashlari ham aks ettirilgan. Bora-bora ular pedagogik qadriyat darajasiga koʻtarilgan va keyingi avlodlarni milliy gʻurur, mardlik, jasorat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Qabila-urugʻning mard va jasur yigitlari toʻgʻrisida, ularning gʻaroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo boʻlgan. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa boʻlib yashayotgan aholi oʻrtasida dastlab ogʻzaki shaklda tarqalgan. Bugungi kunda ular pedagogik qadriyat sifatida yosh avlodda milliy gʻurur tuygʻusini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Milliy gʻurur-shaxs, ijtimoiy guruhning muayyan millatga mansubligidan faxrlanish hissi. Bu tuygʻu oʻzini-oʻzi anglash shakllaridan biri boʻlib, ajdodlar qoldirgan moddiy, maʼnaviy meros, oʻz xalqining jahon sivilizatsiyasiga qoʻshgan hissasi, qadr-qimmatini, obroʻ-etiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi”<sup>1</sup>.

Milliy gʻurur insonlarda quyidagi shakllarda oʻz ifodasini topadi:

-oʻz xalqi, millatining erishgan yutuqlari, qadriyatlari, milliy boyliklari, urf-odatlarini, anʼanalaridan faxrlanish, uning hayotidagi oʻziga xos xodisalarga befarq boʻlmaslik;

-oʻz xalqi, millatining ravnaqi uchun fidoyilik koʻrsata olish;

-oʻz xalqi, millatining asrlar davomida yaratgan maʼnaviy, madaniy, moddiy boyliklarini asrab-avaylash;

-xalqning milliy urf-odatlarini, anʼanalari, qadriyatlarini eʼzozlash va avaylab-asrash, koʻpaytirish;

---

<sup>1</sup> “Maʼnaviyat”: asosiy tushunchalar izohli lugʻati/OʻzR Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 760 bet. B. 411.

-o'z millatini qadrlashini kundalik amaliy faoliyatida namoyon eta olish kabilar.

Shu bilan bir qatorda milliy g'urur egasi boshqa xalqlar va millatlarning vakillariga alohida hurmat-e'tibor bilan qarash, ularning madaniy boyliklarini qadrlay olish tuyg'usiga ega bo'ladi. Boshqa millat vakillarining madaniyati, urf-odatlarini, an'analarini qadrlagan holda milliy g'ururni millatchilik va soxta millatparvarlikdan farqlay oladi. Bunday sifatlarni yosh avlodga ta'lim-tarbiya jarayonida singdirish zaruriyati bugungi kunda ayniqsa kuchaymoqda.

Yosh avlod uchun milliy g'urur tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur jarayonda o'quvchilarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, millat taqdiri uchun qayg'urish, fidoyilik sifatlari tarkib topadi. Bunday yondashuv natijasida o'quvchi-yoshlarda o'z ajdodlari va bugungi vatandoshlarining yutuqlaridan faxrlanish, ularni avaylab-asrash va ko'paytirishga intilish, jaxon xalqlarining ilg'or madaniyati bilan o'z xalqi madaniyatining yutuqlari bilan qiyoslash, undan faxrlanish tuyg'usi shakllantiriladi. Millatning jahon maydonida o'zligini namoyon qilishi uchun hissa qo'shish, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish asosida xalqning yutuqlarini ko'paytirishga bo'lgan intilish kuchayadi. Buning natijasida yoshlar sog'lom dunyoqarashga, milliy g'ururga ega bo'lib, vatan ravnaqi uchun tinmay harakat qilishga intiladilar. Ularda fidoyilik hissi yuksaladi. Bu jarayonda kitoblarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish talab etiladi. Kitoblarda o'zbek xalqining o'tmishi, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, tajribalari ifoda yetilgan bo'lib, ulardan o'quvchi-yoshlarni xabardor qilish orqali milliy g'urur tuyg'usi shakllantiriladi.

Kitoblar insonni ma'naviy boyitib, uni ma'rifiylik kamolati sari yetaklaydi. Insonni shaxs sifatida shakllanishiga ma'naviy tafakkuri ildizining mustahkamligiga bog'liq. Bu mustahkamlik esa kitob o'qish, o'qigan kitobning eng muhim jihatlarini ilg'ab, anglab olishdan iboratdir.

Kitobxonlik masalasi bo'yicha mamlakatimizda ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimizning 2017 yil 13 - sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik

madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ – 3271 sonli qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ma'naviy - ahloqiy hamda intellektual rivojlanishi uchun muhim qadam bo'ldi <sup>2</sup>.

Bugungi kunda kitobxonlikni tashkil qilishda axborat – kutubxona muassasalariga, ta'limning barcha tizim va bo'g'inlariga murakkab, masuliyatli vazifalar yuklandi. Kitob insonga ta'sir etishning eng qulay vositasidir, u inson xis tuyg'usiga ahloqiga, hatti-harakatiga, dunyoqarashiga ta'sir etadi. Buyuk ajdodlarimiz merosiga, urf odatlarimizga millatga, istiqloлга fidoiylik tuyg'ularini tarkib toptirish, har qanday qiyinchiliklardan chiqishga yo'l topa oladigan shaxsni tarbiyalash tushunchalarini qamrab oladi. Inson ma'naviyatining o'ziga xos jixatlari kitobhonlik bilan amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Kitob o'qigan inson fikrlay oladi. Bu borada faylasuf D. Dekart "Men fikrlay boshlaganimdagina mavjud bo'laman" deb, aytgan edi. Fikr insonni olamga, insonga, tabiatga va jamiyatga bo'lgan munosabatida vujudga keladi. Shuningdek, fikr insonda maqsadni, mohiyatni anglashga imkon yaratadi.

Shuni aytish joiski, insonlardagi fikrlar o'z navbatida tafakkurni shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Biz bilamizki, tafakkur miyaning bir nuqtasidagi faoliyati natijasi emas, balki miya po'stlog'ining bir qancha nuqtalari faoliyati assotsiatsiyasi natijasidir. Binobarin, tafakkurda, ya'ni fikr yuritishda qator aqliy jarayonlar – analiz, sintez taqqoslash, abstraktsiya, umumlashtirish va boshqa jarayonlar faol ishtirok etadi. Shundan keyin biz ular natijalari asosida xukm, xulosa chiqaramiz, bir to'xtamga kelamiz. Bizda muayyan tushuncha yuzaga keladi, buni miya po'stlog'ining ixtisoslashgan xujayralari – nuqtalari faoliyati assotsiatsiyalanadi. Demak, qisqa qilib aytganda, miyaning aqliy-intellektual qobiliyati shu ixtisoslashgan nuqtalarning kanchalik rivojlanganligiga bog'lik. Uni rivojlantirishning manbai esa bu – kitobdir. Inson kitob mutola qilar ekan, shu nuqtalar juda sekin, sezilmas darajada rivoj olib

---

<sup>2</sup> Qarang. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom yettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.O'zbekiston. 2017-y. 530-b.

boradi. Chunki odam kitob o'qish jarayonida ichki nutq bilan bir vaqtda fikr yuritadi. Qancha ko'p fikr yuritsa, shuncha ko'p miya nuqtalari takomil topadi, rivojlanadi. Bu – xaqiqatda ham nina bilan quduq qazishning o'zginasidir. Lekin oy-kunlar o'tadi, yillar ortda qoladi, inson kitob mutolaa qilishda davom etar ekan, bora-bora miya rivojlanib boradi. Rivojlangan miya oddiy odamni murakkab insonga aylantiradi. Murakkab inson esa ko'p kashfiyotlarga, ko'p yaratuvchanlikka, ko'p donolikka qodir bo'ladi. Meni inson qilgan kitobdir desalar xech ikkilanmay ishonib. Albatta, qanaqa kitob o'qishga qarab miyaning u yoxud bu nuqtalari rivojlanadi. Chunonchi, badiiy kitoblar xis-tuyg'ularni, turmush mashmashalarini yechishni, xayotiy muammolarni xal qilishni, go'zallikni sevishni, yomondan yaxshini, adolatdan adolatsizlikni, oqdan qorani ajratishni, mehr qo'yish, sevish, nafratlanish, g'azablanish kabi xislatlarni o'rgatsa, ilmiy kitoblar fanlarning qay bir soxasini o'rgatadi, bilim beradi, miyani ixtisoslaydi va xokazo.

Hulosa qilib aytganda, badiiy kitob xayotga o'rgatsa, ilmiy kitob mutaxassislikka o'rgatadi. Umuman olganda kitob o'qigan o'quvchi-yoshlarda dunyoqarashi o'sadi, dunyoni taniydi shuningdek yovuzlikdan nafratlanish tuyg'usini paydo qiladi. Eng asosiysi shundaki, o'quvchi-yoshlarda milliy g'urur tuyg'usi rivojlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom yettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.O'zbekiston. 2017-y. 530-b.
2. "Ma'naviyat": asosiy tushunchalar izohli lug'ati. O'zR Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 760 bet. B. 411.